



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **YOLG‘ON – ILMIY MULOQOTDA HAMKORLIK TAMOYILLARINING BUZILISHI IFODASI SIFATIDA**

**Turabova Sevara Kattaqulovna**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, dotsenti (DSc)

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada yolg‘on fenomeni ilmiy muloqotda hamkorlik tamoyillarining buzilishi ifodasi sifatida falsafiy, mantiqiy va kommunikativ nuqtai nazardan tahlil qilingan. Yolg‘onning mohiyati, uning ilmiy bahs va argumentativ muloqot jarayonidagi namoyon bo‘lish shakllari yoritilgan. Shuningdek, P. Graysning kooperatsiya tamoyili va kommunikativ maksimlari asosida yolg‘onning axborot sifati, miqdori, maqsadga muvofiqligi hamda muomala usuliga salbiy ta‘siri ochib berilgan. Maqolada ilmiy bahsda yolg‘onni aniqlash va fosh etishning faktik tahlil, mantiqiy tahlil, Sokratik savollar, manipulyativ ritorikani fosh etish, shuningdek, psixologik va texnologik tekshiruv kabi samarali usullari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ilmiy muloqot madaniyatini rivojlantirish, bahsning adolatliligi va ishonchligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** yolg‘on, ilmiy muloqot, ilmiy bahs, hamkorlik tamoyili, kommunikativ maksimlar, argumentatsiya, manipulyatsiya, mantiqiy tahlil, faktik tahlil, Sokratik metod, ritorika, haqiqat.

## **ЛОЖЬ КАК ВЫРАЖЕНИЕ НАРУШЕНИЯ ПРИНЦИПОВ КООПЕРАЦИИ В НАУЧНОЙ КОММУНИКАЦИИ**

**Турабова Севара Каттакуловна**

Термезский университет экономики и сервиса, доцент (DSc)

### **Аннотация**

В данной статье феномен лжи анализируется как выражение нарушения принципов кооперации в научной коммуникации с философской, логической и коммуникативной точек зрения. Раскрываются сущность лжи и формы её проявления в процессе научной дискуссии и аргументативного общения. На основе принципа кооперации и коммуникативных максим П. Грайса показано отрицательное влияние лжи на качество и количество информации, её релевантность и способ подачи. В статье также обоснованы эффективные методы выявления и разоблачения лжи в научной дискуссии, включая фактический анализ, логический анализ, сократический метод постановки вопросов, разоблачение манипулятивной риторики, а также психологическую и технологическую проверку информации. Результаты исследования имеют важное значение для развития культуры научного общения, обеспечения справедливости и достоверности научной дискуссии.

**Ключевые слова:** ложь, научная коммуникация, научная дискуссия, принцип кооперации, коммуникативные максимы, аргументация, манипуляция, логический анализ, фактический анализ, сократический метод, риторика, истина.

## **LIES AS AN EXPRESSION OF THE VIOLATION OF COOPERATION PRINCIPLES IN SCIENTIFIC COMMUNICATION**

**Turabova Sevara Kattaqulovna**

Termez University of Economics and Service, Associate Professor (DSc)

### **Abstract**

This article examines the phenomenon of lies as an expression of the violation of cooperation principles in scientific communication from philosophical, logical, and communicative perspectives. It explores the essence of lying and the forms of its manifestation in scientific discussion and argumentative interaction. Based on P. Grice's cooperative principle and communicative maxims, the study reveals the negative impact of lies on the quality, quantity, relevance, and manner of information delivery. The article also substantiates effective methods for detecting and exposing lies in scientific debate, including factual analysis, logical analysis, Socratic questioning, identification of manipulative rhetoric, as well as psychological and technological verification tools. The findings are important for developing a culture of scientific communication and for ensuring fairness, credibility, and effectiveness in scholarly discussion.

**Keywords:** lie, scientific communication, scientific debate, cooperative principle, communicative maxims, argumentation, manipulation, logical analysis, factual analysis, Socratic method, rhetoric, truth.

So'nggi vaqtlarda inson faoliyatining har xil sohalarida yolg'onning mohiyatini anglash muammosiga alohida qiziqish bildirilmoqda. Mazkur muammoning hozirgi kun uchun dolzarbligi nazariy jihatdan ko'ra ko'proq amaliy ahamiyat kasb etadi, desak o'rinli bo'ladi. Xususan, zamonaviy kommunikatsion jarayonlarda yolg'onning keng tarqalganligi, yoshlarning ekstremistik va terroristik oqimlar tuzog'iga tushib qolish muammosi, OAVdagi muhokamalar, shaxslararo munozaralar, siyosiy argumentatsiyalar va hokazolar ushbu muammoni tadqiq etish zarurligini namoyon etadi.

Xo'sh, yolg'on fenomeni bilan qaysi fan sohasi shug'ullanishi kerak? Kishilar qanday qilib yolg'on gapirib, aldaydilar? Yolg'onni kimlar professional darajada tadqiq etishlari zarur? Bu kabi savollarga javob berishda yolg'on muammosining fanlararo tadqiqot obyekti ekanligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Yolg'on fenomeni muammo sifatida falsafa, etika, mantiq, huquqshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, tilshunoslik kabi ko'plab bilim sohalarida o'rganiladi. Yolg'on psixologiyasining yetuk tadqiqotchilaridan biri bo'lgan Pol Ekman ham: "Yolg'on shunchalar ijtimoiyki, uni inson faoliyatining deyarli barcha sohaları bilan ochiqchasiga bog'lash mumkin" [1: 39], deya bejiz ta'kidlamagan. Shu munosabat bilan adabiyotlarda yolg'onning turli: axloqiy, mantiqiy, psixologik, huquqiy va boshqa jihatlari muhokama qilinib kelinmoqda. Tadqiqotchilar umumiy sinonim turkumdagi "yolg'on", "yanglishish", "aldov", "nohaqlik", "uydirma" va boshqa turli tushunchalarni o'zaro solishtirib, ularga qarama-qarshi bo'lgan "haqiqat", "chin", "rost" tushunchalari bilan qiyoslamodalar. Yolg'onning verbal va noverbal xususiyatlari muammosi faol muhokama qilinib, ularning xossalari aniqlashga harakat qilinmoqda.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

Biz "yolg'on" tushunchasi qanday ma'noni anglatishini aniqlashtirib olish maqsadida "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga murojaat qilar ekanmiz, unda A. Madvaliyev "yolg'on – haqiqatga zid, noto'g'ri; haqiqatda bo'lmagan. Yolg'on so'z. Yolg'on xabar" [2: 33], deya tavsiflaganiga guvoh bo'lamiz. Aristotel yolg'onni voqelik bilan nomuvofiqlik deb hisoblab, "yolg'on va haqiqat narsalarda emas, balki (mulohaza yuritish) tafakkurda topiladi", deydi [3: 186]. Shular qatorida yolg'on insonning moddiy va egoistik maqsadlariga erishish vositasi sifatida ham talqin etiladi. Xususan, axloqshunoslik ilmiga ko'ra, yolg'on jamiyat tomonidan qoralanadigan illatdir. Masalan, yolg'on muammosining axloqiy jihatini diniy tajriba kontekstida ko'rib chiqqan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o'zining "Yolg'on" nomli asarida bu borada shunday fikrlarni keltirgan: "Yolg'on so'zi arab tilida «kizb» deyiladi va lug'atda rostning teskarisini anglatadi. Yolg'on so'zda bo'lishi bilan birga, amalda ham bo'ladi. Bunda yolg'onchi bo'lmagan narsani bo'lgan qilib ko'rsatish uchun hiyla qiladi. Yoki uning aksi bo'lib, bo'lgan narsani bo'lmagan qilib ko'rsatishga urinadi" [4: 30]. Rossiyalik faylasuf V. S. Solovyovning fikriga ko'ra esa, "yolg'ondan o'z manfaati yo'lida foydalanish yolg'onchining o'zi uchun uyatli

va haqoratli, tinglovchisi uchun esa zararlidir. Chunki yolgʻon insonning oʻz qadr-qimmatini hurmat qilish va oʻzgalarga nisbatan adolatli boʻlish kabi asosiy axloqiy meʼyorlarni buzadi” [5: 44]. Mazkur aksiologik talablar haqiqat, rost va chin kabi tushunchalarni oldinga olib chiqadi. Bu kategoriyalar bir-biri bilan oʻzaro bogʻliq va koʻpincha sinonim sifatida ishlatiladi. Aniqroq qilib aytadigan boʻlsak, haqiqat bilish nazariyasi va mantiq kategoriyasi boʻlib, u tafakkurni real voqeʼlik bilan bogʻliq tarzda tavsiflaydi, rost va chin esa axloqiy kategoriyalarga tegishli boʻlib, tafakkurni axloqiy qadriyatlarga nisbatan kvalifikatsiyalaydi.

Yolgʻon kommunikatsiya hodisasi sifatida adresant tomonidan adresatning irodasi va his-tuygʻulariga aldov orqali taʼsir oʻtkazish vositasidir. Lingvist va faylasuf P. Greys fikriga koʻra, yolgʻonchi tomonidan quriladigan kommunikatsiya tamoyillar va postulatlar buzilishi yoʻli bilan amalga oshiriladi. Olim oʻzining “Mantiq va nutqiy muloqot” nomli asarida shunga muvofiq tarzda axborot miqdorining toʻlaqlonligi maksimasi; axborot sifati (quality) maksimasi; maqsadga (relation) muvofiqligi maksimasi; muomala (manner) usuli maksimasi kabi postulatlarini koʻrib chiqdi. Ularga rioya qilish toʻgʻri va ideal muloqotda kooperatsiya tamoyilining amalga oshirilishini taʼminlaydi. Kooperatsiya nutqiy muloqotning asosiy qoidalarini belgilaydi va bu prinsipga rioya qilish bahs samaradorligini taʼminlaydi. Masalan, “axborot miqdorining toʻlaqlonligi” maksimasida maʼlum bir maqsad yoʻlida berilayotgan maʼlumotning optimal darajada yetarli boʻlish talabi aks etadi. Misol uchun: “Sening bayonoting muloqotning joriy maqsadlarini amalga oshirish uchun talab qilinganidan kam boʻlmagan miqdordagi faktlarni oʻz ichiga olishi kerak. Sening bayonoting talab qilinganidan koʻra koʻp boʻlmagan faktlarni oʻz ichiga olishi kerak” qoidasi keltiriladi. Demak, bahsli muloqot jarayonida beriladigan maʼlumotlarni haddan ziyod koʻp ham, juda kam ham boʻlmagan miqdorda berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Greys axborot miqdorining buzilishiga doir ekstremal shaklga tavnologiyani misol tariqasida keltiradi. Olimning fikriga koʻra, mazkur postulatning tavnologiya asosida buzilishi kommunikantning yetarlicha bilim va maʼlumotga ega emasligi bilan izohlanadi. Axborot sifati maksimasida chin, yaʼni yolgʻon boʻlmagan maʼlumotlarni taqdim etish talab etilib, bunga “asoslarning yetarli boʻlmagan narsalar haqida bahslashma”, “aytganlarningning barchasi haqiqatga muvofiq boʻlishiga intil”, “yolgʻon soʻzlama” singari postulatlar xos hisoblanadi. Mazkur maksimaning bajarilishi qolgan boshqa maksimalarning amalga oshirilishida juda muhimdir. Maqsadga muvofiqlik maksimasini bajarish uchun muloqot ishtirokchilari mavzudan chetga chiqmasliklari zarur hisoblanadi. Muomala usuli maksimasi esa noaniq va tushunarsiz mulohazalardan qochishni, kamtar va tartibli boʻlishni talab etadi. Qoʻshimcha tarzda shuni ham taʼkidlash joizki, Greys maksimalarni oʻrganishda bahs ishtirokchilarining ijtimoiy-madaniy jihatlarini ham inobatga olish lozimligini taʼkidlaydi. Chunki muloqotda maʼlum bir konkret sotsiumning muloqot normalari va anʼanalari ham muhim hisoblanadi. Masalan, axborot miqdorining toʻlaqlonligi maksimasidagi “faqat belgilangan mavzu doirasidagi axborotlardangina foydalanish kerak”ligi talabi turli madaniyatlarda har xil qabul qilinishi mumkin. Baʼzi madaniyatlarga, jumladan, yapon, koreys, oʻzbek millatlariga xos boʻlgan javoblarni loʻnda qilib berish va oddiy jumlar ishlatish boshqa madaniyat vakillariga, masalan, ingliz va ruslarga muloqot qilishni istamaslik koʻrinishidagi muomalasizlik sifatida taʼsir koʻrsatishi mumkin.

### **Tahlil va natijalar.**

Maʼlumki, yolgʻon faqat haqiqatni oʻzgartiribgina qolmay, balki soxta reallikni ham yaratadi. Yolgʻonning eng kuchli effekti shundaki, uning taʼsiridagi odamlar har doim ham yolgʻonni haqiqiy reallikdan ajrata olmaydilar. Shu bois bahslardagi yolgʻon koʻpincha faktlarni darhol tekshirish imkoni boʻlmagan paytlarda qoʻllaniladi. Yolgʻon taʼsiriga tushuvchilar odatda ijtimoiy tarmoqlardagi diniy yoki siyosiy mavzudagi bahslarda emotsiyalarga tez berilib, jigʻibiyron boʻlishadi yoki tez gʻazablanishadi, ammo faktlar keltira olib, vazminlik bilan bahslasha olishmaydi. Shuning uchun koʻp hollarda bunday odamlar diniy yoki siyosiy oqimning passiv nishoniga aylanishadi va koʻpincha oʻzlarining aldanishlariga oʻzlari imkon berishadi. Masalan, yoshlar orasida diniy ekstremistik oqimlarga qoʻshilib ketish holatlari shunga misol

bo'la oladi. Chunki yoshlar o'zlarini o'rab turgan olamga nisbatan keskin munosabatda bo'lishadi. Ijtimoiy va moddiy himoyasizlik, baholash va fikrlashdagi bo'rttirishga moyillik, ruhiy g'orlik, muayyan darajada o'zgalar fikriga qaramlik yoshlar orasida radikal g'oyalarning oson tarqalishiga imkon beruvchi sabablar sirasiga kiradi.

Ilmiy bahslarning bosh maqsadi haqiqatni aniqlash, dalillarni mantiqiy asosda tahlil qilish hamda ilmiy muammolarga aniqlik kiritishdan iboratdir. Biroq amaliy jarayonda ayrim hollarda bahs ishtirokchilari tomonidan haqiqatga to'liq mos bo'lmagan yoki noto'g'ri dalillar keltirilishi mumkin. Bunday holatlarda yolg'onni aniqlash va fosh etish ilmiy bahslarning adolatli va samarali bo'lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy bahsda yolg'onni aniqlash va fosh etish uchun bir qator samarali usullar qo'llanilishi mumkin. Eng asosiy usullardan biri dalillarni faktik tahlil qilishdir. Bu usul yordamida keltirilgan ma'lumotlarning faktlarga asoslanganligini tekshirish va ularning ishonchliligini baholash mumkin. Faktik tahlil, ayniqsa, noto'g'ri yoki haqiqatga zid bo'lgan statistik ma'lumotlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bahs davomida da'volarning manbasi, metodologiyasi va asosiy dalillarini so'rash orqali yolg'onning mavjudligini fosh qilish mumkin.

Yolg'onni fosh etishning yana bir samarali vositasi bu mantiqiy tahlildir. Ushbu yondashuvda dalillar bilan xulosalar o'rtasidagi ichki mantiqiy bog'liqlik o'rganiladi. Noto'g'ri yoki uzilgan mantiqiy zanjirlar ko'pincha soxta dalillarni yuzaga chiqaradi. Shu sababli dalillarni mantiqiy izchillik, sabab-oqibat aloqalari va asosiy fikriy mexanizmlar nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali xulosalarning haqiqatga qanchalik mos ekanini aniqlash mumkin. Mazkur usul, ayniqsa, noaniq yoki mantiqan bo'sh dalillarni aniqlashda yuqori samaradorlikka ega. Shuningdek, nutq va axborotni tekshirish ham yolg'onni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti tufayli bugungi kunda ma'lumotlarning haqiqiyiligini verifikatsiya qilish ancha osonlashgan. Bahsda keltirilgan da'volarning texnik va faktik asoslarini tahlil qilish orqali soxta yoki haqiqatdan uzoqlashgan dalillarni aniqlash mumkin. Ayniqsa, raqamli platformalarda mavjud manbalarni solishtirish va faktlarni tekshirish jarayoni bu usulning amaliy qiymatini yanada oshiradi.

Ekspert savollar yordamida tahlil qilish, ya'ni Sokratik metoddan foydalanish yolg'onning mantiqiy zaif tomonlarini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Bu usul bahsda keltirilgan da'volarni chuqurroq tahlil qilish va ularning ichki mantiqiyiligini sinab ko'rishga imkon beradi. Muayyan fikr yoki dalilni tasdiqlash uchun aniq savollar berish orqali uning haqiqatga mosligini aniqlash mumkin. Dalillarning yetarlicha asosga ega emasligi aniqlanganda yolg'on dalillar fosh qilinadi.

Manipulyatsion ritorikani fosh etish ham bahsning obyektivligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ritorik manipulyatsiya ko'pincha hissiyotlarga ta'sir qilish yoki shaxsga hujum qilish orqali amalga oshiriladi. Ushbu manipulyatsiyani aniqlash va bahsni dalillar asosida davom ettirish uchun ishtirokchilarning e'tiborini mavzuga qaytarish lozim. Shaxsiy tajriba yoki hissiyotga asoslangan bahslarning ahamiyatini kamaytirib, dalillarning ishonchliligini o'rganish asosiy maqsad bo'lishi kerak.

Yolg'onni aniqlashning samarali yo'llaridan biri tana tili hamda nutqning psixologik jihatdan tahlil qilinishidir. Ilmiy bahs jarayonida haqiqatdan chetga chiqish holatlari ko'pincha mimika, jest va ovoz ohangidagi noaniqliklar orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli verbal va noverbal belgilarni kuzatish yolg'onning mavjudligini aniqlashda muhim diagnostik vosita sifatida qaraladi. Noqulay tana harakatlari, keraksiz pauzalar yoki haddan tashqari hissiy reaksiyalar kabi belgilarning tahlili yordamida da'volarning ishonchliligini baholash mumkin. Ushbu yondashuv bahs davomida dalillarning aniqligini kuzatib borishga va manipulyatsiyadan qochishga yordam beradi. Ilmiy muloqotda bu usullarni birgalikda qo'llash haqiqatga asoslangan va samarali bahs yuritish imkonini beradi.

#### **Xulosa.**

Demak, ilmiy bahsda yolg'onni aniqlash va fosh etish muloqotning adolatli bo'lishi

uchun zarur vositalardan biridir. Bu jarayonni amalga oshirish uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

1. Dalillarni faktik tahlil qilish va ma'lumotlarning asoslarini so'rash.
2. Mantiqiy zanjirlarni tekshirish va noto'g'ri bog'lanishlarni fosh qilish.
3. Manipulyatsion ritorika va noto'g'ri argumentlarni rad etish.
4. Zamonaviy texnologiyalar va psixologik tahlil vositalaridan foydalanish.

Yolg'onni aniqlash va fosh etish nafaqat bahs madaniyatini oshiradi, balki ilmiy izlanishlarning ishonchligini saqlab qolishga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Экман П. Психология лжи: обмани меня, если сможешь. — СПб., 2016. — С. 39.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. — Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. — B. 33.
3. Аристотель. Метафизика // Сочинения: в 4 т. — М.: Мысль, 1976. — Т. 1. — С. 186.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Yolg'on. — Toshkent: Hilol nashr, 2014. — 80 b.
5. Соловьёв В. С. Оправдание добра. — М.: Алгоритм, 2012. — С. 44.
6. Турабова С. К. Возможности имплементации передового зарубежного опыта в научно-исследовательской деятельности студентов Узбекистана // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*. — 2024. — Т. 4, № 10. — С. 240–244.
7. Turabova S. K. Munozara — ilmiy bilish faoliyatining tarkibiy qismi sifatida // *International Scientific Journal of Biruni*. — 2024. — Vol. 3, No. 2. — P. 221–225.
8. Kattakulovna T. S. Moral choice under algorithmic predictability and the transformation of human autonomy in the digital society // *London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (LIMCMRI)*. — 2025. — Vol. 2, No. 1. — P. 719–722.
9. Kattaqulovna T. S. Traps and manipulative (speculative) methods used in disputes // *American Journal of Pedagogical and Educational Research*. — 2024. — Vol. 22. — P. 38–42.